

Navoiy va Bobur siymosi – yosh san’atshunoslar nigohida

Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida o‘zbek adabiyotining ulug‘ namoyandalari – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan “Fevral o‘qishlari: Navoiy va Bobur siymosi yosh san’atshunoslar nigohida” mavzusida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.



Unda Institutning yosh tadqiqotchilari tasviriy san’at, teatr, kino, musiqa kabi madaniy jabhalarda Navoiy va Bobur ijodiy merosining talqin qilinishi, bu ikki shaxs obrazini san’at asarlarida yaratishning o‘ziga xos jihatlari va muammolari xususida ilmiy ma’ruzalar qilishdi. Tadbir o‘ziga xos mahorat darsiga aylandi, ustoz san’atshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlar yosh san’atshunoslar uchun qimmatli bo‘ldi.



Davra-suhbati yakunida Navoiy va Bobur ijodi asosida yangi san'at asarlari yaratish bo'yicha zarur taklif-mulohazalar bildirildi.